

ANVAR OBIDJONNING HAJVIY SHE'RLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Mamatalimov Zafar Mamaraimovich

Alfraganus universiteti dotsenti

mamatalimovz@gmail.com

ORCID: 0009-0007-1628-1635; UDK: 821.512.133-1(092)(043.3)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14915818>

Annotatsiya: Bu maqolada muallif taniqli bolalar shoiri Anvar Obidjonning hajviy she'rlari misolida shoirning obraz yaratish mahorati, hajviy g'azallaridagi o'ziga xoslik borasida o'z fikrlarini bayon qiladi.

Аннотация: В данной статье автор на примере юмористических стихотворений известного детского поэта Анвара Обиджона высказывает свои мысли о мастерстве поэта в создании образов и неповторимости его юмористических газелей.

Kalit so'zlar: hajviy tip, voqeaband g'azal, badiiy mistifikatsiya, xronologik tasvirlash uslubi, nazira, she'rlar evolyutsiyasi, ijodiy labororiya, alliteratsiya, irsoli masal, shir-u shakar, chiston, modern she'riyat

Ключевые слова: юмористический тип, событийный газель, художественная мистификация, метод хронологического изображения, назира (газель, написанная следуя ранее созданной), эволюция стихотворений, творческая лаборатория, аллитерация, ирсоли масал (приведения в газели пословиц), ширу шакар (стихотворение, строки которого написаны на разных языках чередованием), чистон (стихотворение-головоломка), модернистская поэзия.

Adabiyotshunos olim A.Rasulov "Ijodiy o'zlik sari" kitobida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan hajviy obrazlar haqida gapira turib, "XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida yana ikkita yorqin hajviy tip yaratildi. Biri–Matmusa (Erkin Vohidov), ikkinchisi–Gulmat (Anvar Obidjon)",–deb yozadi. Qahramon shoirimiz Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumini o'qimagan, Matmusaning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan hangomalaridan qotib-qotib kulmagan o'zbek bo'lmasa kerak. Shu ma'noda donishqishloqlik Matmusa o'zbek kitobxoniga qanchalik suyumli bo'lsa, oltiariqliklik Gulmat ham shu qadar ardoqlidir.

Hajviy qahramon yaratish, uni tip darajasiga ko'tarish masalasi ijodkordan katta mahorat talab etishini hammamiz yaxshi bilamiz. Biz maqola mavzusidan kelib chiqqan holda usta Gulmatni adabiyotshunoslar "yorqin hajviy tip" deya baholashlarining sabablarini izlashga harakat qilib ko'ramiz.

"Dastlabki she'rlarimni o'sha otin oyilardan eshitgan Mashrab g'azallari radiflariga taqlidan bitganman", – deya xotirlaydi Anvar Obidjon ijodining dastlabki pallalari haqida. Demakki, usta Gulmat turkumidagi she'rlar yaratilishiga turtki bo'lgan omillarni mana shu murg'ak tasavvurlardan izlash kerakka o'xshaydi.

Oybek, G'afur G'ulom... kabi ijodkorlarimiz biror yirikroq janrdagi ijod namunalarini yoki she'riy to'plamini elga taqdim etishdan oldin kitobxonlar ko'ngliga sayohat qilish, o'quvchi munosabatini bilish maqsadida hikoya, yoki kichikroq she'riy asar shaklidagi asarlarini e'lon qilganlari ma'lum. Shu ma'noda A.Obidjon ham "Bezgakshamol" to'plami orqali turkum g'azallarini xalqimiz hukmiga havola etishdan avval "Ketmagil" deb nomlangan ilk to'plamida dastlabki hajviy g'azallarini e'lon qildi. To'plamga "Anvar" taxallusida yozilgan uch g'azal kiritilgan. Har uchalagi hazaji musammani solim vaznida yozilgan "Kerak bo'lsin", "Nasib

bo'lsa", "Yalintirgay" radifli g'azallar o'ta kamtarinlik bilan "g'azal shaklidagi she'rlar" deb nomlangan bo'lsa ham, shakl va badiiyat jihatidan mukammal g'azallar ekanligi ko'rinib turibdi. Nishona asari xalqimiz tomonidan xush qabul qilinganidan ruhlangan shoir usta Gulmat turkumida she'rlarni "Bezgakshamol", "Akanq qarag'ay Gulmat", "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Alamazon va Gulmat" to'plamlari orqali ketma-ket e'lon qila boshladi. Bu asarlar hozirgacha adabiyotimiz jonkuyarlari tomonidan munosib baholanib kelinmoqda.

Shoirning ilk hajviy to'plami bo'lmish "Bezgakshamol"ga jamlangan g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, muxammas, mustazod janridagi she'rlari qayta ishlanib, sayqallanib, "Akanq qarag'ay Gulmat", "Alamazon va Gulmat", "Alamazon va Gulmat hangomasi" kabi to'plamlariga kiritilganiga guvoh bo'lish mumkin. Agar "Bezgakshamol" dagi g'azallar shoirning Gulmat, Gulmatiy taxalluslari bilan ijod qilganligini ko'rsatsa, keyingi to'plamlarda badiiy mistifikatsiyaga keng o'rin beriladi. Ma'lumki, ko'pgina ilmiy adabiyotlarda mistifikatsiyaga "asarda muayyan maqsaddan kelib chiqib, hodisaga sirli tus berish, yo'q narsani bor deb o'quvchini ishontirish" yoki "pinhoniylilik, sehrgarlikka yo'g'rilgan voqealar turtki bo'lib, dastlab topib olingan, song'ra yo'qotilgan qo'lyozma hamda bu haqdagi hikoyani ravnaq toptiruvchi o'rta asrga xos xronologik tasvirlash uslubi" deb ta'rif beriladi. Bu uslub shoir Gulmat qalamiga mansub devon, olimlikka ashaddiy ishqiboz Burundor Tasmoliyning hali tasdiqlanmagan ilmiy ishi, mulla Akobirning kundaliklari, hattoki Gulmatiy she'rlarining tiklangan yillarining berilishi, izoh ma'nosidagi tagmatnlar voqealarga sirli tus berishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Usta Gulmat tilidan aytilgan she'rlar jamlanib, mumtoz adabiyotimizda bo'lgani kabi maxsus muqaddima yoki xotima yozilmagan bo'lsa-da, g'azal, raqam 1 ning "Shoiringni yo'lga boshla yamoq tushgan choriqqinam" misrasi bilan boshlanishi o'quvchilarda g'azal mulkiga sayohat ruhini paydo qiladi. Raqam qo'yilmasdan "g'azal raqam so'g'ing'idin olding'i", "g'azal raqam so'g'ing'i" deya izoh berilgan g'azallar xotimalovchi g'azallardir.

"Devon" da mustaqil g'azallar salmoqli o'rin tutadi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Zavqiy g'azallariga nazira tarzida bitilgan g'azallar ham talaygina. Xususan, g'azal, raqam 11 – Bobur qalamiga mansub "Sochiniy savdosi..." g'azaliga, g'azal, raqam 9 – Ogahiyning "Yuzing ochkim..." g'azaliga, g'azal, raqam 27 – Mashrabning "O'rtar" g'azaliga tatabbu sifatida yaratilgan.

Usta Gulmat obrazining yaratilishi, badiiy obraz sifatida shakllanib borishi, "yorqin hajviy tip"ga aylanishi, uning umriboqiyilgini ta'minlab turgan qirralarni aniqlash uchun dastlabki hajviy g'azallar va so'nggi yillarda chop etilgan usta Gulmat turkumidagi she'rlar evolyutsiyasiga e'tibor qaratilsa, Anvar Obidjon doimiy qahramonining o'zligini namoyon qilishi uchun tinimsiz izlanishda bo'lganini ko'rsatadi. Qaysidir ma'noda shoir ijodiy laboratoriyasining ko'lamini ham belgilab beruvchi bu she'rlardagi ayrim o'zgarishlar vazn talabi bilan amalga oshirilgan bo'lsa (g'azal, raqam 11, 25), ba'zilar hajv kuchini oshirish (g'azal, raqam 7, 8, 10, 11, 13) yoki Gulmat shoir xarakterini yorqinroq ochish (g'azal, raqam 16, 34) vazifasini o'tagan. Keling, ayrim g'azallarni tahlilga tortib ko'ramiz.

Mango ot bermading – sadqay, ey egam, kel, eshak bergil,

Egar-jabduqniyam sozlab, eshakka sal bezak bergil.

("Bezgakshamol", g'azal, raqam 25).

Gulxaniyning "Bideh" radifli g'azaliga hamohang tarzda yaratilgan ushbu g'azal mumtoz adabiyotimizda ko'p qo'llaniladigan hazaji musammani solim vaznida. G'azal matlasidagi "ey

egam” undalmasi keying to‘plamlarda “xudoyim” so‘zi bilan almashtirilishi oqibatida birinchi misra uchinchi ruknidagi saktalikning oldi olinishiga – musiqiy ravonlik ta‘minlanishiga erishilgan. Xuddi shu holni g‘azal, raqam 11, 15 larda ham ko‘rish mumkin.

Mashrab g‘azaliga nazira tarzida bitilgan 27-raqamli g‘azalida:

Zabun holim bo‘lib doston o‘qilgaydur machitlarda,
Yig‘latibon so‘filarni yurakni har azon o‘rtar

baytidagi oshiq shoir holatining aynan masjidda muhokama qilinishi haqiqatdan yiroqroq ekanligini anglagan muallif bu so‘zni “so‘fiylar mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan katta xona va uning atrofidagi hujralar” ma‘nosini anglatuvchi “xonaqoh” so‘zi bilan almashtirish orqali tasvir kuchini yanada oshirishga erishgan.

Sevimli yozuvchimiz Said Ahmad “Bezgakshamol”ga so‘zboshi sifatida yozgan “Usta Gulmatning mirzosi” maqolasida usta Gulmat bilan bog‘liq sarguzashtlarni tahlil qilar ekan, shunday xulosaga keladi: “Usta Gulmat ba‘zan juda quv, ba‘zan o‘taketgan darajada landavur, ba‘zan sodda mug‘ombir... Undagi mana shu “xislatlar” hajv uchun juda qo‘l kelgan. Anvar qahramoniga o‘ziga bop til topgan, she‘riy uslub ham topgan. G‘azallarning har bir bandidan, so‘zlaridan, vaznidan, hatto qofiyalaridan ham usta Gulmatning suvrati ko‘rinib turganga o‘xshaydi”. Darhaqiqat, Anvar Obidjon birinchi g‘azaldan to so‘nggisigacha Gulmatiy tili, uslubi, xarakterini bir tizginda ushlab turish muammosini muvaffaqiyat bilan uddalaganki, natijada voqealar xronikasida, qahramon xatti-harakatida g‘alizlik ko‘zga tashlanmaydi. Masalan, dastlab shoirlikka ixlos qo‘ygan Gulmat keyinchalik sartarosh (g‘azal, raqam 57) sifatida namoyon bo‘ladi. 22-raqamli g‘azalda sartaroshlikda ham omadi yurishmagan qahramonimizning savdo ishlariga o‘zini urganligini ko‘ramiz:

Eski Jo‘va qatorinda kichik do‘kon ochib qo‘yduk,
Sotuvg‘a so‘ng mayiz-turshak, zira-zirka sochib qo‘yduk.

Sartaroshlik tegib jonga, kechib qaychi va qayroqdin,
Do‘konga bir qoshiq-o‘lchov, iptarozu osib qo‘yduk.

G‘azal raqam, 43 da savdo-sotiqda kasodga uchragan Gulmat yana gaptaroshlik – shoirlik hunariga qayradi. Shunday qilib, to‘plamdagi she‘rlar Gulmat – shoir, Gulmat – sayyoh-savdogar, Gulmat – sartarosh, Gulmat – do‘kondor, Gulmat – olim kabi syujet chiziqlari atrofida birlashadi.

Shu bilan birga Anvar Obidjon galdir qahramonining harakatlanishi uchun makon va zamon masalasini mutanosiblashtirishga erishgan. Aksar voqeaband g‘azallarda keltirilgan joy nomlari usta Gulmat sarguzashtlari Toshkent va uning atrofida kechganligini ko‘rsatadi. Oq podsho, Amir Olimxon, Kerenskiy, Krovparkin nomlari, bolshibek (bolshivek) va menshibek (menshivek)lar o‘rtasidagi toj-taxt talashuvi, mardikorlikka olish voqealari, Turkistonda “madaniyat” niqobi ostida ko‘nka (tramvay), otasharava (poyezd)ning paydo bo‘lishi XIX asr oxiri XX asr boshlari manzarasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantiradi.

Badiiy asar tili, xususan, asarda uchraydigan ko‘frik, beshyag‘och, sango, vale, oningdek, tufrog‘, kangul, kalavvot, istol, savg‘o, avqot, hillo (hiyla), yamon, emdi, pidbo‘l singari so‘zlar usta Gulmatning o‘ziga xos til uslubini belgilaydi. Til xususiyatlarini ko‘rsatish orqali Gulmatiy xarakterini yorqinlashtirish, tipiklashtirish vazifasi qo‘shimchalar (olg‘on, axtarub, bulg‘uncho, fosh qilayun, o‘xshaydu), hattoki tinish belgilariga ham yuklatilgan:

Xazar etg‘il poraxo‘rning qazonidin, chunonchi ul–

Qanchalar ... yegonini o'ttiz ikki tishidin so'r. (g'azal, raqam 31)

E sabo, ayt borib arzim o'shal qozi kalonimg'a,
Javob qaytarmasa..... (g'azal, raqam 13)

Ko'pnuqtalar g'azal, raqam 38, 39, 63 larda ham uchraydi. Go'yoki asl matnda o'chib ketgandek tasavvur uyg'otuvchi bu sirli ko'pnuqtalar mistifikatsiya kuchini yanada oshirganiga shubha yo'q.

Kezi kelganda Gulmat shoirlarga xos til uslubidan chekinish hollariga ham duch kelamiz. Bu, ayniqsa, ayrim so'zlar, qo'llangan qo'shimchalarda uchraydi. G'azal raqam 6 da -dan chiqish kelishigining (yiroqlardan-mandin), g'azal raqam 20 da jo'nalish kelishigining (oqqoshshoga, ulfatga-ahli dimog'dorg'a) ikki xil shaklda qo'llanishi, g'azal, raqam 8 da "Do'rmon" so'zining davr nuqtayi nazaridan mos kelmasligi bunga misol bo'la oladi.

G'azallarning hayotbaxshligini ta'minlab turgan vositalardan biri she'riy san'atlardir. Mumtoz adabiyotimizda azal-azaldan g'azaliyotning bir husniga o'n husn qo'shib kelayotgan tashbeh, tazod, jonlantirish, mubolag'a, istiora, takrir kabi o'nlab san'atlar Gulmatiy nazmining ham jontomirlari sanaladi.

Ko'p o'ylanma bu ne'matlar haloldanmu haromdan deb,
Uzumni jimgina kavshab, bog'ini so'rmog'on yaxshi
yoki
O'tga yaktak otma, Gulmat, burgaga aylabon zarda
misralari orqali Gulmatiyning Suqrotnamo nasihatlarini ifodalash uchun irsoli masal san'ati juda qo'l kelgan.

Sani Farg'onadan izlab topmadim,
Gulmatiyini o'zin yo'qlab Shoshga shosh.

G'azal, raqam 49 ning maqta'si sanalmish yuqoridagi baytda shoshmoq fe'li bilan Toshkentning qadimiy nomi – Shosh tajnis san'atini yuzaga keltirgan bo'lsa, o'zini doimo eziluvchi sinf – jabrdiydalar safida hisoblagan alamzada Gulmatning satira manman, johil, xudbin kimsalarga qarshi eng qudratli quroli ekanligini ifoda etishda muayyan tovushlar ohangdoshligi, alliteratsiyadan foydalaniladi:

Azal kulgu bilan ezg'on ezarmonni ezilg'onlar,
Quyub g'ofil, kulib yulgilki yulg'ichdin yullar ersang. (g'azal, raqam 55)

Qazonlardan **q**aro yu**q**sa, yamonlardan balo yu**q**qay,
Qo'shilsa san-u manga, bo'lurmiz uch nafar iflos. (g'azal, raqam 28)

Ikkinchi baytda esa qo'llangan xalq maqoli (irsoli masal) tarkibidagi tovushdoshlik parallel tasvir bilan (Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar.-Yomonga yaqin yursang balosi yuqar.) uyg'unlik hosil qilgan. Shuningdek bir qator g'azallarda forscha (g'azal raqam 2, 26), ruscha (g'azal raqam 51), fransuzcha (g'azal raqam 48) kalimalar o'zbekcha so'zlar bilan omixtalashib, shir-u shakar san'atini yuzaga keltirgan.

Agar Gulmat turkumidagi she'rlar shakl nuqtayi nazaridan tadqiq etilsa, "devon"ga g'azallardan tashqari fard, ruboiy, qit'a, muxammas, musaddas, mustazod kabi mumtoz janr namunalari ham jamlanganiga shohid bo'lamiz.

Zamin ho'kiz shoxida qaltis turodir beshak,
Biror mast ul ho'kizga irg'itmasa bas xashak.

(“Bezgakshamol”, fard, raqam 12).

Itni itga tishlatib, vaqti chog‘dir itboqar,
Bo‘ldi majruh ikki it, o‘zi sog‘dir itboqar.

(“Bezgakshamol”, fard, raqam 13).

Garchi mazkur fardlar shunchaki Gulmatning dumbul falsafabozligini, “olimona” qarashlarini ko‘rsatish uchun yaratilgan bo‘lsa ham, zamirida og‘riqli savollar, muhim hayotiy muammolar yashiringanligini ko‘rish mumkin. Qadimgi mifologiyaga ko‘ra, ulkan baliq ustida turganicha zaminni o‘z shoxlarida tutib turuvchi ho‘kiz o‘ziga irg‘itilgan xashakka talpinib, zaminni halokatli vaziyatga qo‘yishi kishida kulgu uyg‘otishi tabiiy. Aslida, “mast”, keyingi farddagi “itboqar” so‘zlari asl ma‘noni yuzaga chiqarayotgan, shoir badiiy niyatini o‘z gardaniga ortmoqlagan leksik birliklardir. Bu so‘zlar vositasida, Fitrat ta‘biri bilan aytganda, “dunyo tuzugini o‘z qopchig‘ini to‘ldirgali buzg‘anlar” ning razil qiyofalari kishi ong-u shuurida suvratlanadi. Boshqa fardlarda ham xuddi shunday fikrlar qatlamiga duch kelishimiz mumkin.

“Akanq qarag‘ay Gulmat” to‘plamiga ikkita muloqot janridagi she‘r kiritilgan. Mana ulardan bir parcha:

Kim yig‘layur, vale yotni shodlatur?
“Gilamchida gilam yo‘q” – ne anglatur?
Tilamchi o‘z holin qachon tanglatur?
Zavol bizda qolg‘ay, savoli sizga.

Folklor an‘analari, turman shoiri Maxtumlul va Durdi shoir aytimlari ta‘siri sezilib turgan bu she‘riy topishmoq–chistonlarning javobini topish ham o‘quvchidan yetarlicha zukkolik, topqirlik talab etadi.

Birinch misrada o‘lanchi, ikkinchi misrada dehqon, uchinchisida mukofotxo‘r haqida gap borayotganini anglagan kitobxon labida yumor kuchidan nim tabassum uyg‘onadi. Ammo shoirning buyuk armonlari – “aytsa tili, aytmasa dili kuyadigan” asl moya majoz pardasiga o‘ralganini faqat zukko o‘quvchigina anglab yetadi.

“Shunchaki gap-gashtak aytishib dono bo‘lg‘onim” deya izoh berilgan 1-raqamli muloqot avom tomonidan berilgan savollarga Gulmatning javobi tartibidagi yakka misralardan tashkil topgan. Gulmat va ayg‘oqfe‘l tanqidchi G‘ishmat orasida kechgan 2-raqamli muloqot to‘rtliklardan iborat.

Saroy munaqqidi, zamonasoz G‘ishmat nomi muxammas, raqam 5 da ham uchraydi. Bu muxammas Gulmatning o‘z g‘azallarini noo‘rin tanqid qilingani tufayli G‘ishmatga, muxammas, raqam 2 Gulmatini ko‘rolmaganigan gubernatorga tuhmatnoma yuborgan Makoyil Mustafoga murojaat tarzida bitilgan. Yangi yil munosabati bilan Gulmatni yo‘qlab kelgan rusiyalik shoir Ko‘zma Prutkov, qoraqalpoq shoiri Amir laqqi, tojik shoiri Mushfiqiy, qozog‘istonlik Aldar ko‘so bilan bog‘liq sarguzashtlar 4-raqamli muxammasda o‘z aksini topgan.

“Bezgakshamol” dan beshta tuyuq bor. Ular to‘rt misradan iborat ekanligi, qofiyalanish tartibi, qofiyalarning “bo‘lmasang”, “yaxshi qizdir”, “ot”, “o‘t”, “kech” kabi tajnis so‘zlardan tashkil topganligi bilan tuyuqqa o‘xshaydi. Oxirigi uch so‘zning xalq og‘zaki ijodida, mumtoz adabiyotda tajnis sifatida qo‘llanishiga bot-bot duch kelamiz. Usta Gulmat tilidan aytilgan tuyuqlarda yuqoridagi so‘zlar yumor bilan qorishgan holda rango-rang ma‘no tovlanishlarini ham hosil qiladi.

Tekin ishlag‘onda sekin ishla. (o‘gut, raqam 3).

Buqaning oldida yurmag'il, eshakning ortida turmag'il. (o'gut, raqam 11).

Qassobga gul berma, xotung'a – pul. (o'gut, raqam 13).

Tulki esang, sherman dema, sherman desang, tovuq yema. (o'gut, raqam 18).

Qonxo'rga ko'z yoshlag'on – quduqqa qarmoq tashlag'on. (falsafa, raqam 9).

Baqalarga jo'r bo'lg'ondin hofiz chiqmas. (falsafa, raqam 4)

“Alamazon va Gulmat” kitobidagi o'git, falsafalar ko'zdan kechirilsa, hozirgi davr adabiyotida modern she'riyat namunasi sifatida baholanayotgan bir, ikki yoki uch qatordan iborat she'rlar shoir ijodida 70-80-yillardayoq uchrashiga guvoh bo'lish mumkin. Bir o'qishda samimiy kulgu ortida yurakka nashtardek botuvchi haqiqatlar jo qilingan bunday she'rlar keyingi davrda nashr etilgan to'plamlarda “o'rtabarmoqlar”, “ignabarg she'rlar”, “ikkiqatlar”, “uchchanoqlar” turkumi sifatida beriladi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, Anvar Obidjon garchi usta Gulmat turkumiga kirgan g'azallarini “raqamli g'azallar” sifatida kitobxonlarga taqdim etgan bo'lsa-da, boshqa to'plamlariga kirgan g'azallarini esa o'ta kamtarlik bilan “g'azalsimonlar”, “g'azal shaklidagi she'rlar” deb nomlanganining o'ziyoq shoir mohir g'azalnavislikni da'vo etmaganini ko'rsatadi. Aksincha, Cho'lpon, Habibiy, E.Vohidov kabi ijodkorlar ishini munosib davob ettirib, bir vaqtlar she'riyatning mehvari hisoblangan aruzni himoya qilish, unga nisbatan yosh kitobxonlar ko'nglida muhabbat uyg'otishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu haqda shoir “Juda qiziq voqea” kitobining “Bulbulning cho'pchaklari” turkumida shunday yozadi: “Ajdodlarimiz meros qoldirgan durdona asarlarning deyarli hammasi aruz vaznida bitilgan. Ayni paytda, bu vaznda bolalar uchun juda kam narsa yozilgan.

Kichkintoy zamondoshlarim qalbida g'azalga qay tarzda ko'nikma hosil qildirish ustida bosh qotirib yurgan kezim tasodifan bir Bulbulcha bilan tanishib qoldim-u, mushkulim oson ko'chdi... She'rlarining shakligina g'azalga o'xshaydi, ya'ni unda aruz qonun-qoidalariga to'liq rioya etilmagan. Yanglishmasam, shoir qushchaning o'zi o'sha qonun-qoidalarni chuqurroq o'rganib ulgurmagan ko'rinadi”. Bu turkumda Gulmat sarguzashtlaridan farqli ravishda bolalarbop g'azallar (“Ovchining to'yi”, “Suvarak”, “Musiqqa darsi”...) jamlangan.

To'g'ri, jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida nasr imkoniyatlaridan kelib chiqib ming-minglab betakror obrazlar yaratilgan. She'riyatda, ayniqsa, mavzu doirasi birmuncha cheklangan g'azallar yordamida qahramon yaratish ijodkordan alohida mahorat talab qiladi. Bu esa Anvar Obidjonning beqiyos mahoratidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Obidjon A. Alamazon va Gulmat hangomasi. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – B.254.
2. Obidjon A. Ketmagil. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B.41.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.412.
4. Obidjon A. Bezgakshamol. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B. 3.
5. Obidjon A. Alamazon va Gulmat. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B. 252.
6. Obidjon A. Akang qarag'ay Gulmat. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – B. 283.